

Singapur olimlari aralash plastikni erituvchilarsiz qayta ishlash texnologiyasini yaratdi

// 10.07.2026

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/singapur-olimlari-aralash-plastikni-erituvchilarsiz-qayta-is>

 #jahon_kimyo_sanoati_xabarlar

SINGAPUR OLIMLARI ARALASH PLASTIKNI ERITUVCHILARSIZ QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASINI YARATDI





PET

+




Glitserin

→



DIPS
Xona harorati

→



PET parchalanadi

+



PP saqlanadi



90%
mustahkamlik



Erituvchisiz



Xona
haroratida

 uzkiyosanoat  uzkiyosanoat  uzkiyosanoat.uz  uzkiyosanoat

Singapurlik olimlar erituvchilardan foydalanmagan holda ko'p qatlamli plastik qadoqlarni qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqdi. DIPS (Depolymerization-Induced Polymer Separation) deb nomlangan mazkur jarayon haqida Recycling International ixtisoslashgan nashri xabar berdi.

Texnologiya mualliflarining ta'kidlashicha, DIPS uzluksiz ikki shnekli reaktiv ekstruziya tizimiga asoslangan bo'lib, glitserin ishtirokida plastikning bir turini tanlab parchalaydi, ikkinchi turini esa o'zgarishsiz saqlab qoladi.

Polietilentereftalat (PET) va polipropilen (PP)dan tayyorlangan ko'p qatlamli qadoqlarni qayta ishlash jarayonida PET glitserin bilan reaksiyaga kirishib, tabiiy ravishda PPdan ajralib chiqadi. Kimyoviy qayta ishlashning aksariyat boshqa texnologiyalaridan farqli o'laroq, mazkur tizim xona

haroratida ishlaydi.

Laboratoriya sinovlari natijalariga ko'ra, qayta tiklangan PP o'zining dastlabki cho'zilishga chidamlilik xususiyatining 90 foizgachasini saqlab qolgan. Hozirgi vaqtda bunday materialdan to'g'ridan-to'g'ri qadoqlash mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalanish imkonini mavjud emas, biroq u boshqa kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishda xomashyo sifatida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqotchilarning fikricha, kelgusida DIPS texnologiyasini aralash plastiklarning boshqa turli kombinatsiyalariga ham moslashtirish mumkin.

Ayni paytda ishlanma mualliflari texnologiyani sanoat miqyosida sinovdan o'tkazish uchun ishlab chiqarish korxonalari orasidan hamkorlar izlamoqda.